

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**SENTYABR, 2025**



**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiyalar.com>



ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

**TOSHKENT-2025**

**ISSN - 3093-8791**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 25-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Karimov Rustam*

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH ..... 5-11

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Toxirov Kozim*

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH ..... 12-15

### TARIX FANLARI

*Rahmatov Muhiddin*

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI ..... 16-19

*Norov Shuhrat*

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOYIY FAOLLIK VA IQTISODIY ERKINLIK ..... 20-23

*Abdimurodova Zebiniso*

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY ..... 24-29

### IQTISODIYOT FANLARI

*Олеся Авдошкина*

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА ..... 30-35

*Суюнова Саодат*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА ..... 36-41

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zokirova Barchinoy*

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI ..... 42-45

*Eshchanova Mavjuda*

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI ..... 46-49

*Razikov Baxtiyor*

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK KUZATUV ..... 50-52

### YURIDIK FANLARI

*Nishanov Sanjar*

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV VA SUB'EKTIV OMILLAR ..... 53-59

### PEDAGOGIKA FANLARI

*G'aniyev Shaxzod*

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ..... 60-65

*Najmetdinova Nargiza*

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI ..... 66-69

**TIBBIYOT FANLARI**

*Yuldasheva Zulkhumor*

COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND  
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE ..... 70-73

**SIYOSIY FANLARI**

*Toshpulatov Shohruxbek*

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ ..... 74-80

## YURIDIK FANLARI

**SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'JEKTIV VA SUB'JEKTIV OMILLAR****Nishanov Sanjar Yuldibayevich**

Jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tumani sudi tergov sudyasi

E-mail: [sanjarsledak@gmail.com](mailto:sanjarsledak@gmail.com)

Tel: +99895-946-46-46

Tashkent, Uzbekistan,

**Annotatsiya.** Maqola sudyalarning kasbiy huquqiy ongi shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni tahlil qiladi. Ob'ektiv omillar qatorida qonunchilik bazasi, sud tizimining institutsional tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy muhit o'rin olgan. Sub'ektiv omillar esa sudyalarning ta'lim darajasi, shaxsiy axloqiy qadriyatlarini, kasbiy malakasi va psixologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Maqolada xorijiy huquqshunos olimlarning, xususan Ronald Dvorkin, H.Xart, Lon Fuller va Jerom Frankning huquqiy ong va sudya faoliyatiga oid nazariy qarashlari asosida polemik muhokama olib boriladi. Tahlil natijasida sudyalarning huquqiy ongini mustahkamlashda ta'lim tizimini takomillashtirish, sud mustaqilligini ta'minlash va axloqiy-etik normalarni kuchaytirish muhim ekanligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** huquqiy ong, ob'ektiv omillar, sub'ektiv omillar, qonunchilik, sud tizimi, kasbiy malaka, axloqiy qadriyatlar, psixologik omillar, sud mustaqilligi, huquqshunoslik, xorijiy olimlar fikrlari, polemika.

**OBJECTIVE AND SUBJECTIVE FACTORS INFLUENCING THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF JUDGES' LEGAL CONSCIOUSNESS****Nishanov Sanjar Yuldibayevich**

Investigative Judge at the Shaykhontohur District Criminal Court

**Annotation.** This article analyzes the objective and subjective factors influencing the formation and development of judges' professional legal consciousness. Objective factors include the legislative framework, the institutional structure of the judicial system, and the socio-economic environment. Subjective factors encompass judges' level of education, personal ethical values, professional skills, and psychological characteristics. The article presents a polemical discussion based on the theoretical views of foreign legal scholars, particularly Ronald Dworkin, H.L.A. Hart, Lon Fuller, and Jerome Frank, regarding legal consciousness and judicial activity. The analysis emphasizes the importance of improving the education system, ensuring judicial independence, and strengthening ethical norms to enhance judges' legal consciousness.

**Key words:** legal consciousness, objective factors, subjective factors, legislation, judicial system, professional skills, ethical values, psychological factors, judicial independence, jurisprudence, views of foreign scholars, polemics.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i7/n11>**KIRISH VA NAZARIY TAHLIL**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan sud-huquq sohasiga oid yig'ilishda "Sudlar mustaqil bo'lishi kerak. Sudyalarning o'z faoliyatida qonunlarga va inson huquqlariga qat'iy amal qilishi, adolatni ta'minlashi lozim. Sudyaning huquqiy ongi va kasbiy ma'rifat darajasi yuksak bo'lmasa, sud tizimida ishonch paydo bo'lmaydi" [1; 5-9 b] deb fikr bildirganlar.

Huquqiy ong — bu huquqshunoslarning nafaqat qonunlarni tushunishlari, balki adolat va insoniylik tamoyillariga sadoqat bilan yondashishlari hamda jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni to'g'ri baholash qobiliyatidir [2; 27-28 b].

Sudyalar huquqiy ongi — bu faqatgina huquqiy bilimlar yig'indisi emas, balki sudyaning shaxsiy tarbiyasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy muhit bilan shakllanadigan ichki asosiy menzondir. Xorijiy hamda milliy huquqshunoslar ushbu tushunchani keng qamrovda tahlil qilgan. Masalan, amerikalik huquqshunos Jerom Frenk sudyaning psixologik holatlari va ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratgan [3; 93-98 b], u sud qarorlarining ob'ektiv qonun normalaridan tashqarida shaxsiy va ijtimoiy ta'sirlar bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olim A.Kuznetsov sudyalarning huquqiy ongining shakllanishi va rivojlanishida inson huquqlari va qonunchilikni aniq tushunish imkonini beruvchi mukammal huquqiy tizimning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [4; 157-165 b]. Uning fikriga ko'ra, sudyalarning huquqiy ongi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning amalda qo'llanilishini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlar, normalarning aniqligi hamda adolat tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Shu ma'noda, sudyaning huquqiy ongi – bu murakkab va bir vaqtning o'zida dinamik jarayon bo'lib, u doimiy ravishda yangi huquqiy bilimlarni o'zlashtirish, amaliyotga tadbiiq qilish hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mas'uliyat hissini uyg'otish orqali shakllanadi. Kuznetsovning ta'kidlashicha, mukammal huquqiy tizimning mavjudligi sudyalarga huquqiy normalarni to'g'ri talqin qilish va ularni adolatli qo'llash imkonini beradi, bu esa sudyalarning huquqiy ongining yanada mustahkamlanishi va adolatli qarorlar qabul qilinishida asosiy shart hisoblanadi. Shu bilan birga, sudyalarning huquqiy ongi ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim vosita bo'lib, u inson huquqlarining har tomonlama himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari xususan Qozog'iston Respublikasida bu borada ilmiy izlanish olib borgan olim I.Sag'aganova sudyalarning huquqiy ongining shakllanishida institutsional mustaqillikning o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Mualliflar ta'kidlashicha, sudyalarning huquqiy ongi nafaqat shaxsiy bilim va tajribaga, balki ularning amaliy faoliyati olib borilayotgan institutning mustaqillik darajasiga ham bog'liqdir. Institutsional mustaqillik sudyalarga tashqi ta'sirlardan mustaqil ravishda, adolatli va qonuniy qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa sudyalarning huquqiy ongining takomillashuvida asosiy faktor sifatida qaraladi. Shuningdek, ular huquqiy ongi sudyaning kasbiy faoliyatidagi institutsional muhit va uning huquqiy-axloqiy standartlarga rioya qilish bilan bog'liq jihatlar yig'indisi sifatida tushuntirishadi. Institutsional mustaqillikning yuqori darajasi sudyalarning o'z qarorlarida faqatgina qonunchilikka va huquqiy normalarga tayangan holda harakat qilishini ta'minlaydi, bu esa ularning huquqiy ongining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5; 11-15 b].

Xorijiy manbalarda ta'kidlanishicha, sudyalarning huquqiy ongiga ijtimoiy-siyosiy muhitning ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, jamiyatdagi demokratiya darajasi sudyaning fuqarolarga nisbatan mas'uliyat hissini oshiradi, qonuniy qaror qabul qilish jarayonida oshkorlik va xolislik printsiplarini rioya etishga undaydi. Ikkinchi tomondan, ommaviy axborot vositalarining ochiqligi, ya'ni sud qarorlari va ularning asoslari haqida keng jamoatchilikka ma'lumot yetkazish imkoniyati sudyaning huquqiy ongi va uning kasbiy etikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yevropalik professor-olima Anna Ivanova ushbu yo'nalishda tahlil o'tkazib, jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyatining sudyalarning qaror qabul qilishga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynashiga e'tibor qaratgan [6; 72-78 b]. U ta'kidlashicha, fuqarolarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lsa, sudyalarning ham o'z faoliyatida huquqqa sodiqlikni va adolatli qaror qabul qilishni ustuvor deb biladilar. Shuningdek, demokratiya va ochiq jamiyat shartlarida sudyalarning mustaqilligi va mas'uliyati yanada kuchayadi.

Qolaversa, ommaviy axborot vositalarining oshkoraligi sud qarorlarini jamoatchilik nazoratiga olib kirish bilan birga, sudyalarning huquqiy ongini rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. Bu haqda Dedid Roberts va hamkasblari sudyalarning kasbiy va etik tarbiyasiga ijtimoiy muhit ta'sirini tadqiq etgan maqolasida batafsil yoritilgan [7; 87-89 b].

Yevropa va Rossiya tajribasi ko'rsatganidek, sudyalarni kasbiy tayyorlash jarayonlari huquqiy ongni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Kasbiy tayyorlash faqat nazariy bilimlarni o'rgatish emas, balki amaliyotda qonunlarni to'g'ri va adolatli qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, etika darslari sudyalarning kasbiy va axloqiy majburiyatlarini anglashini ta'minlab, ularning huquqiy ongini mustahkamlaydi.

Yevropalik huquqshunosi Mark Peter (Mark Peters) o'z tadqiqotlarida sudyalarning mustaqilligi va kasbiy tayyorlashning huquqiy ong shakllanishidagi o'rnini tahlil qilgan [8; 45-59 b]. Uning ta'kidlashicha, sudyalarning kasbiy malakasi, jumladan, etika va amaliyotga oid muntazam mashg'ulotlar, sud qarorlarining sifati va huquqiy ong darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rossiya huquqshunosi Yelena Smirnova ham o'z asarlarida sudyalarni tayyorlashda amaliyotning, xususan, treninglar va muammolarni muhokama qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, sudyalarning malakasini oshirish jarayonida huquqiy bilimlar bilan bir qatorda, axloqiy-etik qoidalarni chuqur o'zlashtirish ham zarur bo'lib, bu omil sudyalarning huquqiy ongining asosiy komponenti hisoblanadi [9; 120-135 b].

Umuman, Yevropa va Rossiya tajribasidagi sudyalarni tayyorlash tizimi quyidagi tarzda tashkil etilgan: nazariy darslar, etika va kasbiy axloq darslari, shuningdek, amaliyotdagi holatlar bo'yicha treninglar va seminarlar. Bu yondashuv sudyalarning huquqiy ongini shakllantirish va ularni professional halqaro standartlarga mos ravishda tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Amerikalik huquqshunos Jerom Frenk o'zining mashhur "Law and the Modern Mind" (1930) asarida sudyaning shaxsiy psixologiyasi, emotsional holati, tarbiyasi va etik qarashlarining huquqiy qaror qabul qilish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U "qonun" tushunchasi faqat yozma normalar majmuasi bilan cheklanib qolmasligini, balki uni tatbiq etuvchi shaxs — ya'ni sudyaning ichki ongi, shaxsiy hayotiy tajribasi, hattoki bolalikda shakllangan fikrlash uslubigacha bog'liq ekanini ta'kidlaydi [10; 93-98 b].

Frenk "realistik huquq" maktabi vakili sifatida sudyaning ongidagi sub'ektiv ta'sirlarni inkor etish xavfli ekanini uqtiradi va bunday holatda sud adolati faqat qog'ozda qolib ketishini ogohlantiradi. Uningcha, sud qarorlari avtomatlashtirilgan "qonunni tatbiq qilish" emas, balki jonli odamning murakkab ongli va psixologik holatlari bilan uzviy bog'liq jarayondir. Shu bois,



Frenk sudya huquqiy ongini rivojlantirishda psixologiya, etika va falsafiy tayyorgarlikka katta e'tibor qaratishni taklif qilgan.

Uning ta'limotiga ko'ra, sudya faqat qonunni bilgani uchun emas, balki uni qanday axloqiy, intellektual va ijtimoiy mas'uliyat hissi bilan qo'llaydi — aynan shu jihat uning haqiqiy huquqiy ongini belgilab beradi.

Sudya shaxsiyati va huquqiy ongi shakllanishida uning individual psixologik xususiyatlari — jumladan, stressga chidamlilik, diqqatni jamlash qobiliyati (fokus), ichki motivatsiya, va insonparvarlik hissi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy psixologiyaga asoslangan huquqshunoslik maktablari bu omillarni sud adolatining ichki psixoemotsional poydevori sifatida qarashadi.

Bugungi kunda Yevropa psixologiya va huquq markazlari, xususan Madrid College of Psychology and Law Studies jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda sudyalarning psixologik tayyorgarligiga oid bir qator muhim natijalar qayd etilgan. Masalan, Rodríguez & Sánchez (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda shunday xulosa beriladi: "Sudyalarning yuqori darajadagi stress boshqaruv qobiliyati, shaxsiy to'liqlik hissi (integrity) va ichki motivatsiyasi ularning huquqiy ongini rivojlantirish va professional etikada barqaror qolishlariga xizmat qiladi" [11; 63-69 b].

Bunday fikrlar sudlov faoliyatida inson omilining markaziy o'rinda ekanini tasdiqlaydi. Shu sababli sudyalarni tanlash va tayyorlash jarayonlarida psixologik testlar, kasbiy stressga chidamlilikni baholash usullari, va shaxsiy qadriyatlarni baholash mezonlari keng qo'llanilmoqda.

Sudyaning stressga chidamliligi, diqqatni jamlash (fokus) qobiliyati, va ichki motivatsiyasi uning huquqiy ongini shakllantirishda markaziy omillardan biri hisoblanadi. Bu xususiyatlar nafaqat shaxsiy barqarorlikni, balki sudlov jarayonida qonuniy, xolis va vijdonan qaror qabul qilish qobiliyatini ham belgilaydi. Zero, sudya o'z kasb vazifasini ijro etishda murakkab, ko'pincha ziddiyatli ijtimoiy munosabatlar bilan to'qnash keladi, va bu sharoitda ruhiy bosimga chidamli bo'lishi, emotsiyalarni nazorat qila olishi zarur.

Jerom Frenk o'zining "Law and the Modern Mind" (1930) asarida sud qarorlari ratsional mantiq asosida qabul qilinadi, degan an'anaviy qarashni qayta ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, sudya shaxsiyati — uning hissiy tajribalari, psixologik holati va ichki yetukligi — har qanday qonun normasini tatbiq etishda muhandis kabi "mexanik" emas, balki inson sifatidagi yondashuv bilan ishtirok etadi [12; 93-98 b].

Bugungi kunda ham bu nuqtai nazar zamonaviy tadqiqotlar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, Spanish Journal of Judicial Psychology ([journals.copmadrid.org](http://journals.copmadrid.org)) nashrida chop etilgan González & Martínez (2021) tadqiqotida ta'kidlanishicha, yuqori darajadagi stress-bosim sharoitida ishlovchi sudyalarda qaror qabul qilish tezligi pasayishi, xolislikning susayishi, hatto emotsional holatga bog'liq "qisman noqonuniy yondashuvlar" yuzaga chiqishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra: "Sudyalarning kasbiy psixologik tayyorgarligi huquqiy ong darajasini mustahkamlab, boshqaruvda mustaqillik va fikr erkinligini kafolatlaydi." [13; 69-69 b]

Shuning uchun ham, sudyalarni tanlash, tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarida ularning psixologik profili, ichki motivatsiyasi, shaxsiy bag'rikenglik va printsiptiallik kabi fazilatlarini dolzarb mezon sifatida baholanmoqda.

Sudyalarning huquqiy ongini shakllantirishga oid ilmiy muhokamalarda ob'ektiv va sub'ektiv omillarga nisbatan yondashuvlar orasida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb polemik nuqtalar mavjud. Bu polemika huquq falsafasi, psixologiya va davlatshunoslik sohalarida hamon muhim nazariy bahslardan biri hisoblanadi.

Ob'ektiv qarashni qo'llab-quvvatlovchi olimlar fikriga ko'ra, sudyaning huquqiy ongi asosan institutsional muhit, qonunchilik tizimi, mamlakatdagi demokratik an'analar, va huquqiy ta'lim orqali shakllanadi. Masalan, I.Sag'aganova o'z tadqiqotlarida sudya huquqiy ongida institutsional mustaqillik, qonunlarning barqarorligi va davlat hokimiyatining tartibli bo'lishi hal qiluvchi omillardan biri ekanini ta'kidlashgan.

Boshqa bir guruh olimlar esa, sudya shaxsiyatidagi psixologik holatlar, axloqiy pozitsiyalar va ruhiy tarbiya huquqiy ongga kuchli ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishda, Jerom Frenk kabi huquq realistlari sud qarorlarida shaxsiy ong osti jarayonlari, shaxsiy qadriyatlar va hayotiy tajribalar rolini e'tirof etadilar. Shuni hisobga olib, huquqni to'g'ri tatbiq etish uchun sudyaning ichki intellektual, axloqiy va psixologik holati yuqori bo'lishi talab etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar, xususan European Journal of Legal and Governance Studies, hamda Judicial Psychology Journal (Madrid) kabi ilmiy jurnallarda chop etilgan tahlillarga ko'ra, bu ikki yondashuvning qarama-qarshi emas, balki bir-biriga bog'liq va o'zaro to'ldiruvchi ekanligi ko'rsatib o'tilmoqda. Sudya huquqiy ongini shakllantirish jarayonida qonunchilik va institutsional muhit (ob'ektiv) omillar bilan bir qatorda, shaxsiy psixologik yetuklik, motivatsiya va insoniy qadriyatlar (sub'ektiv) ham teng darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, ilmiy muhokamalarning asosiy tendentsiyasi — integral yondashuv, ya'ni sub'ektiv va ob'ektiv omillarning muvozanatini topish va har ikkisiga teng e'tibor qaratishdir. Bu yondashuv nafaqat nazariy jihatdan, balki amalda — sudyalarni tanlash, tayyorlash va baholash tizimlarida ham to'liq aks etmoqda.

Sudyalar huquqiy ongining shakllanishi va rivojlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, bu sohadagi ilmiy izlanishlar va xalqaro amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, samarali tizim ob'ektiv va sub'ektiv omillar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozim. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarimiz bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak:

1. Qonunchilik aniq, barqaror va huquqiy aniqlikni ta'minlovchi bo'lishi lozim. Sudya huquqiy ongining shakllanishida huquqiy normalarning aniqligi va tushunariligi birinchi navbatdagi omil hisoblanadi. Qonunlardagi ziddiyatli yoki noaniq normalar huquqni izchil tatbiq etishda to'siq bo'lib, sudyada huquqiy ishonchsizlikka sabab bo'lishi mumkin. Shu bois:

- Qonunlardagi huquqiy bo'shliqlar va noaniq ifodadagi moddalar qisqartirilishi;
- Plenum qarori va qonunni sharhlar (izohlar) tizimini rivojlantirilishi;
- Normativ-huquqiy hujjatlar mantiqiy tizimga solinishi talab etiladi.

2. Sud instituti mustaqilligi kafolatlanishi lozim. Sudya ongiga ta'sir qiluvchi eng muhim institutsional omillardan biri — bu sud hokimiyati mustaqilligidir. Agar sudya tashqi ta'sirlardan himoyalangan bo'lsa (siyosiy, ma'muriy yoki moliyaviy), u erkin va xolis qaror qabul qilishiga to'sqinlik yuzaga keladi. Shuning uchun:

- Sud tizimi moliyaviy va tashkiliy jihatdan ijro hokimiyatidan mustaqil bo'lishi;
- Sudyalar tayinlanishi va lavozimda qolish mezonlari shaffof va tashqi ta'sirdan mustaqil tarzda amalga oshirilishi;

- Sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish faqat protsessual qoidalar doirasida amalga oshirilishi lozim.

3. Sudyalar uchun kasbiy tayyorgarlik va etik mentorlik tizimlari joriy etilishi zarur. Sudyaning huquqiy ongi faqat yuridik bilimlar bilan emas, balki kasbiy sotsializatsiya, ahloqiy qoidalar, yetakchi ustozlardan tajriba olish orqali shakllanadi. Shu bois:

- Sudyalarning tayyorgarligida tajribali sudyalardan ustozlik tizimi (mentorlik) keng qo'llanilishi;

- Qonundan tashqari, huquqiy falsafa, kasbiy etika va tanqidiy fikrlashni qamrab olgan keng qamrovli o'quv dasturlari ishlab chiqilishi;

- Xalqaro sud tajribasi bilan almashish (amaliy stajirovkalar) tizimi kuchaytirilishi lozim.

4. Sudyalar uchun psixologik tayyorgarlik, stressni boshqarish va axloqiy-etik treninglar kuchaytirilishi kerak. zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sudya ongida ruhiy barqarorlik, stress boshqarish qobiliyati va insonparvar qadriyatlarning mustahkam bo'lishi adolatni ta'minlashda juda muhim. Shu bois:

- Sudyalar uchun psixologiya asoslari, emotsional intellekt va stress boshqarish bo'yicha muntazam seminarlar tashkil etilishi;

- Etika kodeksi faqat qonuniy hujjat emas, balki hayotiy muomala standarti sifatida joriy etilishi;

- Sudyalar uchun anonim psixologik maslahat xizmatlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Sudya huquqiy ongining shakllanishi – bu faqat shaxsiy xususiyatlar emas, balki davlat siyosati, institutsional muhit, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanish omillarining kompleks yig'indisidir. Bunday to'laqonli yondashuv sudyalarda adolatli, xolis va huquqiy normalarga asoslangan ongni shakllantiradi, bu esa mamlakatda qonuniylik va inson huquqlarining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev, 2019 yildagi sud-huquq sohasiga oid yig'ilishdagi ma'ruza;
2. Piyos Tultev, «Huquqiy ong va uning ijtimoiy ahamiyati», 2017 yil, Toshkent;
3. Jerome Frank. *Law and the Modern Mind*. New York: Coward-McCann, 1930;
4. Уголовное право России. Общая часть : курс лекций / А.Я. Гришко, А.А.; Волчкова, М.А. Ершов, М.А. Кириллов и др.; под ред. А.П. Кузнецова; Е.Е. Черных. М., 2018. Серия: Уголовное право;
5. bullaw.enu.kz- Saktaganova Indira, Candidate of Law, Associate Professor of the Department of Constitutional and Civil Law, илмий электрон мақола;
6. Ivanova, A. (2020). The Role of Legal Culture in Shaping Judicial Decisions in Democratic Societies. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, 5(2), 123-130.;
7. Roberts, D., et al. (2019). Media Transparency and Judicial Independence: An Empirical Analysis. *European Proceedings*, 4(1), 87-95;
8. Peters, M. (2018). Judicial Training and the Development of Legal Consciousness in Europe. *European Journal of Legal Studies*, 10(3), 45-59;
9. Smirnova, E. (2017). Professional Development of Judges in Russia: Ethical and Practical Perspectives. *Russian Law Review*, 5(2), 120-135;
10. Jerome Frank, *Law and the Modern Mind* (1930);

11. Rodríguez & Sánchez, *Journal of Judicial Psychology*, 2020, Madrid;
12. Frank, J. (1930). *Law and the Modern Mind*. New York: Coward-McCann;
13. González, I., & Martínez, L. (2021). *Psychological Resilience and Legal Decision-Making under Pressure*. Spanish Journal of Judicial Psychology <https://journals.copmadrid.org>;

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**  
**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, sentyabr

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 25-avgust

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.